



## O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI VAZIRINING BUYRUG‘I

### Umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga xorijiy mutaxassislarni jalb qilish jarayonlarini takomillashtirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunining 26–moddasiga asoslanib hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Mahallani rivojlantirish va jamiyatni yuksaltirish” yilida ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha islohotlar dasturlari va “O‘zbekiston — 2030” strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha davlat dasturi to‘g‘risida” 2026-yil 16-fevraldagi PF-22-son Farmoni ijrosini ta’minlash hamda respublikamizdagi umumiy o‘rta ta’lim muassasalarining o‘quv jarayoniga xorijiy mutaxassislarni jalb etish orqali ta’lim sifatini oshirish hamda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarni xalq manfaatlari yo‘lida izchil davom ettirish maqsadida **buyuraman:**

#### 1. Quyidagilar:

Umumta’lim maktablariga xorijiy mutaxassislarni jalb qilish bilan bog‘liq jarayonlarni samarali tashkil etish bo‘yicha ishchi guruh (keyingi o‘rinlarda — ishchi guruh) tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

Til egasi bo‘lgan xorijlik chet tili fani o‘qituvchilariga qo‘yiladigan malaka talablari 2-ilovaga muvofiq;

Til egasi bo‘lmagan xorijlik chet tili fani o‘qituvchilariga qo‘yiladigan malaka talablari 3-ilovaga muvofiq;

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga jalb etiladigan xorijiy mutaxassislarni tanlab olish tartibi 4-ilovaga muvofiq;

\*5-ilovaga muvofiq;

\*5a-ilovaga muvofiq;

\* 6-ilovaga muvofiq;

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalariga jalb etilgan xorijiy mutaxassislarning faoliyatini muvofiqlashtirish yuzasidan maktab ma’muriyatining vazifa va majburiyatlari 7-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

#### 2. Ishchi guruh (Sh.Karimov)ga:

xorijiy mutaxassislarni jalb qilish bilan bog‘liq barcha jarayonlarni muvofiqlashtirib borish;

xorijiy hamkor ta‘lim tashkilotlari, elchixonalar, vakolatli organlar, xorijiy rekruting tashkilotlar bilan muzokaralar olib borish hamda belgilangan tartibda shartnoma tuzish;

vazirlik nomidan xalqaro mehnat yarmarkalarida ishtirok etish hamda ular bilan hamkorlikda xorijiy mutaxassislarni jalb etish choralarini ko‘rish;

umumiy o‘rta ta‘lim muassasalariga jalb etiladigan xorijiy mutaxassislarga qo‘yilgan malaka talablari asosida xorijiy mutaxassislarni saralab olish, suhbat jarayonlarini tashkil etish, ularning faoliyati samaradorligini doimiy monitoring qilib borishda yuqori malaka va tajribaga ega bo‘lgan xorijiy va mahalliy mutaxassislardan iborat ekspertlar guruhini tuzish;

xorijiy mutaxassislar mehnatiga haq to‘lash bo‘yicha ish haqi miqdorlarini ularning mehnat staji, malaka tajribasi va boshqa jihatlarini inobatga olgan holda belgilash choralarini ko‘rish;

hozirda umumiy o‘rta ta‘lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan xorijiy mutaxassislarning faoliyati samaradorligini o‘rganish hamda faoliyati ijobiy baholangan mutaxassislarni saralab, ularning shartnomalarini 2026-2027-o‘quv yili uchun yangilash choralarini ko‘rish;

xorijiy mutaxassislar ishtirokida umumta‘lim maktablarida xorijiy tillarni o‘qitishga yo‘naltirilgan yozgi oromgohlar tashkil etish choralarini ko‘rish vazifalari yuklatilsin.

3. Vazir o‘rinbosari (T.Komilov), Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish boshqarmasi (X.G‘aniyev) vazirlik tizimidagi umumiy o‘rta ta‘lim muassasalariga jalb etilgan xorijiy mutaxassislar bilan o‘rnatilgan tartibda fuqarolik-huquqiy shartnomalar imzolanishini ta‘minlasin.

4. Raqamlashtirish va sun‘iy intellektni rivojlantirish boshqarmasi (S.Abdukarimov) uch oy muddatda rekruting jarayoni (hujjatlarni skriningdan o‘tkazish, shartnoma bo‘yicha viza, vaqtinchalik ro‘yxatdan o‘tish xarajatlari va kompensatsiya hujjatlarini yuklash va to‘lov summalarini kirish va tasdiqdan o‘tkazish, suhbatlar o‘tkazish, shartnoma imzolash), hujjat almashinuvi hamda xorijliklar faoliyatini tashkil etish va monitoring qilib borishni raqamlashtirish maqsadida [www.recruiting.uzedu.uz](http://www.recruiting.uzedu.uz) tizimiga zaruriy o‘zgartirishlarni kiritib, platformani to‘liq foydalanish uchun ishga tushirsin.

5. Xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish boshqarmasi (X.G‘aniyev)ga: 2026-yil sentabrga qadar, umumiy o‘rta ta‘lim muassasalariga jalb etilgan xorijiy mutaxassislar sonini 2 000 nafarga yetkazish;

www.recruiting.uzedu.uz to'liq tayyor holatga kelgach, rekruting jarayoni (hujjatlarni skriningdan o'tkazish, shartnoma bo'yicha viza, vaqtinchalik ro'yxatdan o'tish xarajatlari va kompensatsiya hujjatlarini yuklash va to'lov summalarini kirish va tasdiqdan o'tkazish, suhbatlar o'tkazish, shartnoma imzolash), hujjat almashinuvi va xorijliklar faoliyatini tashkil etish va monitoring qilib borishni to'liq onlayn shaklga o'tkazish;

\*

har oyning yakuni bo'yicha Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar hamda Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida umumiy o'rta ta'lim muassasalariga jalb etilgan xorijiy mutaxassislarning bajarilgan dars soatlari yuzasidan yig'majild hisobotini shakllantirish;

shakllantirilgan yig'majild hisobotlarini belgilangan tartibda har oyning 10-sanasiga qadar buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasiga taqdim etish vazifalari yuklatilsin.

6. Buxgalteriya hisobi va hisoboti boshqarmasi (F.Jamuratova)ga:

rekruting tashkilotlari bilan imzolangan shartnomalarni G'aznachilik xizmati qo'mitasidan ro'yxatdan o'tkazish hamda to'lovlarini amalga oshirish;

taqdim etilgan dalolatnomalarga asosan, umumiy o'rta ta'lim muassasalariga jalb etilgan xorijiy mutaxassislarning oylik ish haqlarini har oyning 15-sanasiga qadar to'lab borish;

\*

yozgi oromgoh davrida va 2026-2027-o'quv yili davomida xorijiy mutaxassislarning turarjoy bilan bog'liq xarajatlari uchun zaruriy mablag'larni Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari tomonidan taqdim etilgan talabnomalarga asosan tegishli hisob raqamlariga o'tkazib berish;

\*

vazifalari yuklatilsin.

7. Respublika ta'lim markazi (D.Norboyeva) bir oy muddatda yoz oylarida xorijiy mutaxassislardan tomonidan tashkil etiladigan xorijiy til to'garaklari uchun ish rejalarini ishlab chiqsin.

8. Davlat xaridlarini tashkil etish bo'limi (J.Mannonov)ga:

\*

2026-yil 1-oktabrga qadar, ushbu davrdan keyin esa xorijiy mutaxassislardan O'zbekistonga yetib kelgan kundan e'tiboran bir oy ichida tibbiy sug'urta bilan ta'minlash tartibida amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq davlat xaridlarini amalga oshirish vazifalari yuklatilsin.

9. Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish boshqarmasi (X.G'aniyev) Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar hamda Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalari bilan birgalikda bir hafta muddatda 2026-2027-o'quv yilida xorijiy mutaxassislar jalb etiladigan umumiy o'rta ta'lim muassasalari to'g'risidagi ma'lumotlarni ishchi guruh muhokamasiga kiritсин.

10. Qoraqalpog'iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, viloyatlar hamda Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmalariga:

bir hafta muddatda mahalliy hokimliklar bilan hamkorlikda 2025-2026-o'quv yilida umumta'lim muassasalarida faoliyat yuritgan xorijiy mutaxassislar uchun turarjoy bilan bog'liq to'lovlarning amalga oshirilganlik holatini tahlil qilib, xatlovdan o'tkazish, qarzdorlik holatlari aniqlansa uni belgilangan tartibda to'lanishi choralarini ko'rish hamda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan vazirlikka axborot kiritish;

uch kun muddatda yoz oylarida xorijiy mutaxassislarni turarjoy bilan ta'minlash yuzasidan mahalliy hokimliklarga rasman murojaat qilish, hokimlik tomonidan moliyalashtirish imkoni bo'lmaganda yoki qo'shimcha mablag'ga ehtiyoj bo'lganda, vazirlikka tumanlar kesimida rasmiy talabnoma kiritish;

2026-yil 15-avgustga qadar, yoz oylarida 2026-yil 10-dekabrga qadar o'quv yili davomida xorijlik mutaxassislarning turarjoylari uchun amalga oshirilgan haqiqiy hisob-kitoblarni chiqarish va foydalanilmagan mablag'larni vazirlikning hisob raqamiga qaytarish choralarini ko'rish;

har oyning yakuni bo'yicha keyingi oyning 3-sanasiga qadar Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish boshqarmasiga umumiy o'rta ta'lim muassasalariga jalb etilgan xorijiy mutaxassislarning yakunlangan oy bo'yicha amalga oshirgan ishlari yuzasidan hisobotlarni taqdim etish;

xorijiy mutaxassislarga umumiy o'rta ta'lim muassasalarida samarali faoliyat olib borishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratilishini nazorat qilish;

amaldagi qonunchilikda belgilangan muddatlarda xorijiy mutaxassislarni yashash joyi bo'yicha tuman (shahar) ichki ishlar bo'limidan vaqtinchalik ro'yxatdan o'tkazish ishlarini muvofiqlashtirish;

umumiy o'rta ta'lim muassasalariga jalb etilgan xorijiy mutaxassislarni turarjoy bilan ta'minlash yuzasidan mahalliy hokimliklar bilan hamkorlikda amaliy choralar ko'rish vazifalari yuklatilsin.

11. Tuman (shahar) maktabgacha va maktab ta'limi bo'limlari boshliqlariga:

uch kun muddatda yoz oylarida xorijiy mutaxassislarni turarjoy bilan ta'minlash yuzasidan tuman (shahar) hokimliklariga rasman murojaat qilish, hokimlik tomonidan moliyalashtirish imkoni bo'lmaganda yoki qo'shimcha

mablag‘ga ehtiyoj bo‘lganda, hududiy boshqarmalar orqali Vazirlikka talabnoma kiritish;

bir hafta muddatda, xorijiy mutaxassislarni yoz oylarida turarjoy bilan ta‘minlash maqsadida xonadon egalari bilan belgilangan tartibda shartnoma tuzish;

turarjoy bilan bog‘liq xarajatlarni mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan qoplash imkoni bo‘lmaganda yoki qo‘shimcha mablag‘ talab etilganda, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi, viloyatlar hamda Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmalari orqali vazirlikka talabnoma kiritish;

umumta‘lim maktablariga jalb qilingan xorijiy mutaxassislarni tegishli hududlarda kutib olish, turar-joylariga joylashtirish hamda maktablarga biriktirish bilan bog‘liq masalalarni tashkil etish;

uch kun muddatda xorijiy mutaxassislarni yashash joyi bo‘yicha tuman (shahar) ichki ishlar bo‘limidan vaqtinchalik ro‘yxatdan o‘tkazish hamda shartnoma muddati davrida xorijiy mutaxassislarning O‘zbekiston Respublikasi hududida qonuniy istiqomat qilishini nazorat qilish;

uy-joy bilan bog‘liq hamda maishiy masalalar yuzasidan mahalliy hokimliklar bilan hamkorlikda xorijiy mutaxassislarga ko‘mak ko‘rsatish;

umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari tomonidan taqdim qilingan har oylik bajarilgan ishlar to‘g‘risidagi hisobotlarni bir kun muddatda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi, viloyatlar hamda Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmalari bilan kelishilgan holda vazirlikka taqdim qilish;

yozgi oromgoh davrida xorijiy mutaxassislarni turarjoy bilan ta‘minlash hamda turarjoy uchun to‘lovlarni amalga oshirish uchun har oylik kesimda hududiy boshqarmalarga talabnoma kiritish vazifalari yuklatilsin.

12. Devonxona bo‘limi (S.Xashimov) bir kun muddatda mazkur buyruqivazirlikning tegishli tarkibiy bo‘linmalari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi, viloyatlar hamda Toshkent shahar maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmalariga yetkazsin.

13. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish vazirning birinchi o‘rinbosari Sh.Karimov zimmasiga yuklatilsin.

**Vazir**

Toshkent sh.,  
2026-yil “26”-may,  
184-son



**E.Karimova**

